

**TA'LIM JARAYONIGA TA'SIR QILUVCHI QADRIYATLAR ULARNING
TA'LIM JARAYONIGA TA'SIRI.**

Axrorova Madina Raxmatovna

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika institute assistant oqituvchi' Tel+93 680 44 15

Biz quyida ta'lim jarayonida qadriyatlarining ijobiy va salbiy ta'sirini tahlil qilishga harakat qildik omillar muammo va yechimlarga takliflar bildirdik.;

1.MEXR

1971- yil psixolog Harry Harlow onasiz qolgan maymunlarni qafasga solidi va ularga 2 ta ona yasab beradi: Bitta ona metal jismlardan iborat va sut beradi. Ikkinchi ona yumshoq matolar yunglar qo'yilgan ammo sut bermaydi. Maymunlar avvalboshida ikkalasiga e'tibor bermaydi, och qolganda keyin sutli metal onani oldiga kelib oziqlanadi, asta-sekin ular yumshoq jismdan iborat bo'lgan ona bilan vaqt o'tkazishni Afzal bilishadi. Psixolog shunday xulosaga keladiki faqat taomlantirish emas, onalarning ishi hatto hayvonlarda ham, hatto hayvon bolalari ham issiq onaga mehri onaga muhtoj. Mana bugun ota-onalarni kuzatishimiz mumkin yediridim ichirdim o'zim qiynalsam ham lekin shunga yarasha javob olmasa ota- onalar iddao qiladi qayerda xato qildim deb, demak muhimi moddiyat emas mehr ekan.

Savol 1 sutkada 1140 daqiqa bor nechi daqiqani farzandimizga bag'ishlayapmiz mehr berishga? Bugun biz vaqt ajratolmayotgan bolalar ijtimoiy munosabatlarda o'zlarini yo'qotib o'zligidan ketmayaptimi?

Taklif: Ta'lim- tarbiya jarayonini faqat bir tomonlama emas ota- onalar bilan hamkorlikda tashkil etish.

Oliy ta'lim 5 kunlik ishni kunini ko'rib chiqishi kerak. Faqat oylikka tasir etmasdan va shanba kuni har bir ota ona farzandiga e'tibor berib u bilan suhbat qurishi va bolani qiziqishi bilan alohida shugullanishi kerak. Maktablarda ota- onalar kunini tashkil etish (oyda 2 marta shanba kunida) va qolgan oyning 2 ta shanbasini o'quvchilar bilan sayohat muzey ekskursiyalarni tashkil etish. Bunda ustozlar rahnamoligida amalga oshirilsa maqsadga muvofiq chunki bugungi globallashuv sharoitida ustoz-shogird munosabatlari yaxshi yo'lga qo'yish eng muhim omillardan.

2.Streotiplar:

Stereotiplar deganda o'sha biz odatlangan frazalar misolida izoh bersak, Endi farzand tarbiyasidagi bizning tilimizga qotib qolgan tushunchalarni keltirsak: Otang qilgan ishni qilsang bo'lmaydimi, Yo'q bolam qo'y bizdaylarga yo'l bo'lsin, Sen hali shu maktabdan eson omon bitirib ol u yog'i bir gap bo'lar, Qiz bolaga o'qish shart emas, Akangni o'qitaylik senga pulimiz qolsa seni masalangni ko'ramiz va hokazo va hozao.....

Nasada sun'iy yo'ldosh yaratilidi va unga nom berish amerikadagi o'rta maktab bolalariga topshirildi. Bunday ma'suliyatli vazifani bajarish uchun ular insho yozishlari kerak eng yaxshi insho sohibi ushbu sun'iy yo'ldoshga nom beradi. Shart shunday. Endi NASADA sun'iy yo'ldoshga nom berishda olim qolmadimi deb o'ylarsiz lekin bu bir bolalarga motivatsiya. Bola suni'y yo'ldosh haqida koinot samo haqida tasavvur qiladi, u

faxrlanib yashaydi chunki u insholar tanlovida g'olib bo'ldi endi uning o'zi nom bergan sun'iy yo'ldoshi bor: "Appolon" unga orzu va istaklarini nyaratib berdi maqsad va yo'lini aniqlash uchun imkoniyat bo'ldi ajab emas bu bola kelajakda kosmonavt bo'lsa katta marralarni zabt etsa, Biz bugungi kunda talabalarga maktab bolalariga qanday motivatsiya beriyapmiz va yutuqqa erishganlariga qanday mukofotlantiriyapmiz?

Sen dam bo'larmiding deb bolasini yerga urib uni ruhan singdiruvchi ota onalar ham yo'q emas jamiyatimizda.

Motivatsiya deganda endi hadeb bolani ko'kka ko'tarish emas, masalan bir she'rni yodladimi darrov maqtamang, yoki bolangiz namoz o'qishni boshladi oddiy holdek qabul qiling. Farzandlar o'rgansin burch va ma'suliyatini buning uchun siz ularning kundalik qilishi kerak bo'lgan ishlarini qilgandan keyin siz maqtaysiz lekin u tashqariga chiqqandan keyin odamlardan ham shunday munosabat kutadi hatto ustozlardan ham bugun besh oldimi ha mehnating uchun olding ishlagan tishlaydi qabilida munosabatda bo'lsangiz farzandlar siz va sizdan boshqalarga nisbatan takabbur bo'lmaydi.

Taklif: Rag'batlantirish bolalarning iqtidorini to'g'ri yo'naltirish. Men har doim talabalarga vaqtni qanday sarflash borasida ijtimoiy roliklar ko'rsatib, behuda vaqt ketkazmaslik maslahatimni berish bilan birga o'zi qiziqqan sohada mashg'ulot va faoliyat yuritish maslahatini beraman. Chunki nafaqat bizning institutda balki bizning jamiyatda qiziqqan yo'nalishi buyicha emas, balki iota onasining xohish va istagi ila o'qiyotgan talabalar yo'q emas. Biz rahbar kadrlar yetishtiramiz. O'sha yetishtirayotgan kadr o'z sohasini sevmasa u badiiy qilib aytganda "uchmaydi". Shuning uchun dars berayotgan o'qituvchilar Bolani yoshligidan bir maqsadga yo'naltirib o'z ishining ustasi qilib tarbiyalash maqsadga muvofiq deb o'ylayman. Kim bo'lishidan qat'iy nazar o'qituvchi bo'ladimi, shifokor, prokuror, qorovul bo'lmaydimi muhimi o'z kasbini sevsin, uchsini va eng yaxshisi bo'lsin. Biz shuni talablarga uqitirishimiz kerak!

Men ota onalarga murojatim:

Hurmatli ota onalar balki sharoit zo'rdir balki uyingizda wyfi borda lekin shuni bilib qo'yingki uyingizda 100 sahifadan oshiq bir 10 ta kitob bo'lmasa va uni o'qish chanqog'i bo'lmasa siz va oila a'zolaringizda bilingki siz juda nochorsiz. Ertalabdan kechgacha telefon o'ynab jamiyatga foydasi tegmayotgan avlod tarbiya qilmoqchi bo'lsangiz siz qotilsiz chunki jamiyatga er yigitlar or nomusli qizlar yetishtirish ehtiyoji baland bir paytda siz zararkunanda kadr yetishtiriyapsiz. Avval o'zingizni tarbiyalang. Siz oldin media vositalariga limit qo'ying bolangiz sizdan o'rganadi.

Statsitik ma'lumotlarga ko'ra 200 mingta millionerni hayot potensiali o'rganilganda ularning 67 foizi umuman televizor ko'rmas ekan, ularni 86 foizi har kun kitob o'qiydi 63 foiz audio kitob o'qishar ekan. Hurmatli ota onalar instagramda soatlab o'tiradigan bolangizni, pubg o'ynaydigan bolangizni kelajakda kitob o'qiydigan bolalar boshqaradi. Siz bolangizni boshqariluvchi qilmoqchimisiz yoki boshqaruvchi?

3.Ha va "Yo'q"

Yosh farzand 10 yoshga to'lguncha 120 000 ta yo'q degan so'zni 14mingta ha degan so'zni ota onasidan eshitar ekan. Agar shu narsani o'rnini almashtirsak, farzand kelajakda qiyin fanlarni qabul qilishni boshlar ekan. Agar yo'q degan iboral uning miyyasiga o'rnashib

qolsa, fanlarni o`zlashtirishda o`ziga yo`q degan chegaralarni ko`proq qo`yar ekan. Ta`qiqqlarni kamaytirish kerak ham ota-onalar va ustozlar!

Xulosa o`rnida Suqrotning bir gapini eslamoqchi edim:

Agar biz bu hayotda boylikka erishmoqchi bo`lsak erishamiz albatta, lekin undan ortiq emas, mansabni maqsad qilsak juda uzoq vaqt ketadi harakat qilsangiz erishasiz lekin ortig`iga emas, shuhratga erishmoqchi bo`lsangiz erishasiz lekin baxtli bo`lmaysiz Suqrot aytganidek boylik bilan ovqat sotib olsa bo`ladi lekin ishtahani emas, tabibni sotib olsa bo`ladi lekin salomatlikni emas, hatto muallimni ham sotib olsang bo`ladi lekin ilmni va farosatni sotib olib bo`lmaydi.

Biz masalaga Google kompaniyasidagidek ma`lumotlarni to`plashda triz usulida yondashdik, ya`ni klassik emas no`ananaviy yondashdik ya`ni maktablardagi muammo ta`lim tarbiya qadriyatlar masalasida ustoz va shogirdlarga qo`yib berdik. Muammoning yechimini esa so`rovnoma shaklida takliflar bilan qabul qildik.

1.Hozirgi davlatimiz maktablarida bolalarni tarbiyasiga ko`p etibor qaratilmoqda. Chunki hozirgi zamonaviy dunyoda globallashuv juda yuqori hisoblanadi. Maktablarda mobile telefondan foydalanish taqiqlangan. Lekin bu narsaga ko`pchilik etibor qaratmaydi. Bu narsalarni aslida uydan boshlash kerak. Agar ota-onalar bu narsani astoydil tushunsa mamlakat ta`lim tizimiga katta hissa qo`shgan bo`lishadi. Jumladan, hozirdagi qonunchiligimiz o`qituvchini huquqlarini ancha cheklab qo`ymoqda. O`qituvchilar huquqlarini biroz bo`lsa ham jamiyat oldida ko`tarish lozim deb hisoblayman. O`qitadigan fanlarda maktabdagi talimda til darslarini ko`paytirish lozim. Hozirgi vaqtda til mamlakat rivojiga katta hissa qo`shadi. Yana aniq fanlarga ham e`tibor berish kerak. Chunki hozirgi zamonaviy dunyoda dasturlash, robototexnika kabi sohalar rivojlanmoqda.(Tarix 4 kurs talabasi)

2.O`quvchilarni tarbiyalashda asosan ota-onaning roli katta chunki o`qituvchi 45 daqiqa yoki 80 daqiqa birga bo`lsa ota ona kunu tun birga bo`ladi o`zimizda bitta maqolbor qush uyasida ko`rganini qiladi degan avvalam bor ota onani tarbiyalash kerak deb o`yayman oyda birmarta majlis qilish kerak deb o`yayman maktab yo kolej tomonidan ota onani chaqirib bolasini qanday maktabda yuripti qanday o`qiyapti darsga kiriyaptimi yo`qmi o`qtuvchilarga momilasi qanday shuni ota onasiga ko`rsatish. (Boshlang`ich ta`lim 2 kurs talabasi)

3.Ta`lim tizimida nafaqat o`qituvchi balki ota-ona atrof muhit ta`sirini hisobga olib yaxshi yosh avlodni tarbiyasiba yaxshi ta`sir qiladigan kontentni ko`paytirishni qulap quvvatlayman. (Xorijiy til va adabiyot ingliz tili yo`nalishi I kurs talabasi)

4.Keyingi navbatda o`qimaydigan talabalarni sinfdan sinfga qoldirish kerak.O`qituvchilar aytgan gaplarini qilishi lozim masalan,birorta bezori bolarni u bilan shug`ullanuvchi ichki ishlar xodimiga murojiat qilishi kerak.

tarbiyasida o`zgarish sezilayotgan yoki o`zgargan o`quvchilar uchun. (O`zbek tili va adabiyoti yo`nalishi 2 kurs talabasi)

5.Jamoviy ish uchun sardor qilish kerak. Bu ish aslida soddaroq, lekin o`quvchi uchun biroz qiyin ekanligi his qilishi kerak, ishni muvaffaqiyatli tugata olishiga pinhona yordam

berilishi kerak va albatta yaxshigina rag'batlantirilib, keyingi ishlarni ham senga beramiz, bizlarga juda katta yordam berding,ota-onangga rahmat degan so'zlar bilan maqtash kerak. Natijada bolada jamoa ishiga qiziqsh uyg'onadi,bu jarayon davomida kitob o'qishni sekin-sekin qo'shib borilsa,menimcha,zo'r natijaga erishish mumkin! (Xorijiy til va adabiyot ingliz tili yo'nalishi II kurs talabasi)

7.Tarbiyasi o'zgargan yuqori sinf o'quvchisini 4-5-sinf o'quvchilarni ekskursiyaga olib borish jarayonida yordamchi o'qituvchi qilib qo'yish kerak va 10-15ta bolani berish kerak (alohida emas,umumiy yurilganda qolib ketmayaptimi deb ba'zida tekshirib turish uchun) sayohat tugagandan keyin masala tashakkur noma berib,sinfdoshlari oldida maqtab,keyingi safar shu joyga boramiz,1-2 ta ma'lumot topsang,yaxshi bo'ladi deyilsa,harakat qilishni boshlaydi,xudo xohlasa!

8.Maktablarda ta'lim sifatining pasayishiga faqat forma masalasiga e'tibor qaratish sabab bo'lmoqda, deb aytish noto'g'ri bo'lardi. Bu muammo juda murakkab va ko'p omillarga bog'liq. Lekin, forma masalasiga haddan tashqari e'tibor berish ta'lim jarayonini chindan ham buzishi mumkin. Agar o'qituvchilar va maktab rahbariyati o'quvchilarning tashqi ko'rinishi bilan ko'proq shug'ullansa, darslarga yetarlicha vaqt ajrata olmaydi. Bu esa o'z navbatida o'quvchilarning bilim olishiga salbiy ta'sir qiladi. Shuningdek, o'quvchilarga nisbatan qo'yiladigan talablarning haddan tashqari qattiq bo'lishi ularning ijodiy qobiliyatini cheklab qo'yishi mumkin. Maktab o'quvchilarga o'z fikrini erkin ifoda etishga imkon beradigan muhit yaratishi kerak. Agar o'quvchilar doimiy ravishda qandaydir qoidalarga rioya qilishga majbur bo'lsa, ular o'z fikrlarini bildirishdan qo'rqishi mumkin. Bu esa ularning shaxs sifatida rivojlanishiga to'sqinlik qiladi.

Maktablarda ta'lim sifatini oshirish uchun faqat formaga emas, balki quyidagi masalalarga ham e'tibor qaratish zarur

- a) O'qituvchilarning malakasini oshirish
- b) Zamonaviy o'qitish usullarini joriy etish
- c) O'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish
- d) Maktablarda sog'lom psixologik muhit yaratish
- e) Ta'lim sifati pastroq. O'quvchilarni qiziqishi ham kamayib boryapti.
- f) Yechim.
- g) O'qituvchi va o'quvchi, hamkasblar o'rtasidagi aloqani yaxshilash. Ayniqsa ota-ona bilan o'qituvchini o'rtasida doimiy aloqa bo'lishi.
- h) Jamoaviy ishlashni rivojlantirish
- i) Qiziqarli metodlar orqali o'quvchini darsga jalb qilish (chunki darsda bir xillik avj olib boryapti, refleksga aylanib boryapti. O'quvchi uchun ham o'qituvchi uchun ham)
- j) C) Direktor hech bo'lmaganda haftada bir marta o'qituvchi darsini kuzatish uchun kirishi.
- k) Bu har ikkala tomonni o'qituvchini ham o'quvchini ham tetiklashtiradi va darsga ko'proq e'tibor qila boshlaydi.

l) D) Hozir ko'plab abituriyentlar o'quv markazlariga ya'ni lo'shim o'qituvchiga ehtiyoj sezayotganli sababli, Direktor maktabni o'zida shu muhitni yaratib bera olishi.(Tarix tojik yo'nalishi 4 kurs)

1.Ijobiy qadriyatlarning ta'limga ta'sirini yozish;

Bu band haqida ko'p mushohada etdik talabalar bilan maktablar shuningdek, mahalla faollari va o'qituvchilar bilan qaysi manbalarni keltirish qaysi darsliklarga qo'shimcha sifatida adabiyotlar tafsiya qilish borasida, Bizda yana ma'lumotlarni umumlashtirish asnosida bir savol qiynadi. Bugungi globallashuv sharoitida ta'lim jarayonida qadriyatlarning qiymati qoldimikin? Salomlashish odobidan boshlab o'qituvchilarni qadrlash, bilimni qadrlash o'zi ta'lim olayotgan maskanni auditoriyalarni toza tutish, jamoaviy ishlash, o'zaro hurmat- e'tibor degan tushunchalar bugungi kun talabalar orasida so'rovnomalar tarzida tahlil qilganda talabalar bunday tushunchalarni bilamiz lekin hayotda deyarli qo'llamaymiz deb javob berishdi.(Shahar maktablari o'quvchilar: 45-47- maktablar)

Savol tug'iladi bizdagi chet davlatlar andozasi asnosida tashkil etilayotgan ta'lim tizimi o'zini oqlayaptimi? Jadidlarda Abdulla Avloniyning bir fikri bor edi "Farzandingizni qaysi tilda ta'lim olayotgan bo'lsa o'sha millatga xizmat qiladi" degan. Buning zamirida juda katta ma'no bor. Menimcha bu fikrlarni til o'rgansin deb farzandini rus yoki yapon, ingliz maktablariga berayotgan ota- onalar diqqatli bo'lib anglasalar yaxshi bo'lar edi. Zero tilni qo'shimcha darslarda ham o'zlashtirsa bo'ladi. Muhit masalasiga kelsa, o'zbek oilalari deyarli xorij tilda oilaviy muhitda muloqot qilmaydi!

Nima qilish kerak! Bizda o'tgan 2 ta renesans davrida juda katta ilmiy me'ros qolgan. Maorif tizimi bo'yicha sharq allomalarining asarlari bilan birgalikda jadidlar ta'limini ham qayta tiklash kerak. Shu o'rinda kaminayi kamtarinning bir taklifi bor oliy ta'lim meni tushunishimcha bilimlarni hayotga tadbiq etishni o'rgatadi. Seminar darslari esa talabalar dunyoqarashini shakllantirish va bilim va ko'nikmalarini yuzaga chiqarish uchun ularni fikrlashga o'rgatish uchun deb hisoblayman. Men nimagadir bugungi kun oliy ta'limdagi seminar darslarini prokuror va maxbusning savol javobiga o'xshataman. (Bu ta'lim tartibi sovet davridan qolgan) Ma'ruzada o'tiladi nazariy kitob tashlab beriladi o'qish uchun va seminarda hisob so'raladi. Bunday jarayonda dunyoqarash, fikrlash degan tushunchalar e'tiborga olinadimi. Hadeb g'arb ta'limiga e'tibor bermasdan bizdagi bor manbalarni ham tahlil qilsak, menimcha yaxshi bo'lar edi, chunki barchamizga ma'lum Yevropa taraqqiyotining nazariy asoslari sharqda yaratilgan.

Taklifim! talabalarga nazariy bilimlar bilan birga o'sha mavzuga nisbatan mustaqil fikri, talab va takliflarini aytish imkoniyatini berish kerak. Chet elda bo'ladigan onlayn platformadagi darslarni kuzatadigan bo'lsak, ularning darslariga davlat amaldorlari investrlar, bank rahbarlari onlayn kuzatishadi. Talabalarning takliflaridan loyihalar tayyorlashadi. Mualliflik loyihalarini amalga oshirish uchun talabalarni ish bilan ta'munlaydi. Bizda ham talaba yosh bola nimani biladi demasdan imkoniyat berish kerak. Men talabalarimga har doim ta'kidlayman: siz 100 yilda bir marta keladigan insonsiz. Sizni buyuk ishlar kutmoqda deb 100 tadan bittasi motivatsiya olib harakat qilsa ham ozgina natijaga erishgan bo'lamiz. Talabalarda o'ziga bo'lgan ishonchni shakllantirish kerak.

2.Taklif. "100 kitob loyihasi."

Jadidlar yaratgan ta'lim tizimi bilan ish ko'rish kerak. Bizda bugungi kunda yuksalish maktablari shu tizimda ishlaydi o'rganish va uni amaliyotga joriy qilish kerak. Qadriyatlar masalasida o'rganadigan faxrlanadigan ancha xislatlarimiz bor kerak bo'lsa o'zimiz ham o'rganib o'rgatishimiz kerak. Buning uchun axloqiy qadriyatlarimiz mujassamlashgan kitoblarni o'qishni mustaqil ta'lim siaftida kiritishimiz kerak. Bunda Turkiya ta'limi yo'lga qo'yilgan 100 kitob loyihasini amalga oshirish kerak. Masalan 4 yillik ta'lim 8 semestr, har semestrda 3 tadan 5tagacha asosiy, 4 ta tanlov fan bor yaxlitlasak 48 ta fan har bir fandan semestr davomida 2 tadan kitob mustaqil ta'limga o'qish uchun tavsiya etilsa kitoblar ro'yxati albatta mustaqil ta'lim topshiriqlari yo'riqnomasida berilsa 4 yil davomida 100 ta kitob o'qiydi. Qaysi yo'nalishda o'qishidan qat'iy nazar. Darsliklarga esa majburiy sifatida 1 kursdan o'qish uchun Avloniy. Turkiy guliston yohud axloq. Imom Buxoriy Va al- adab val- mufradot. Shu kitoblarni o'qish uchun tavsiya qilgan bo'lar edim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.O'zbekiston Respublikasi Ta'lim to'g'risidagi qonun 2020-yil 7-avgust
- 2.Avloniy. Turkiy guliston yohud axloq. T., 1992.
3. „Toshkent davlat pedagogika universiteti tomonidan Adiblar xiyobonida ochiq dars tashkil etildi“ (2020-yil 17-sentyabr). 2023-yil 29-avgustda asl nusxadan arxivlangan. Qaraldi: 2023-yil 29-avgust